



VAFO FAYZULLOH SHE'RIYATIDA TASHXIS SAN'ATI

Elnur Niyozmatov Husin o'g'li

Urganch innovatsion universiteti o'zbek va xorijiy filologiyasi

fakulteti o'qituvchisi

elnurniyozmatov@urgiu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14608809>

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'dodli shoir va mohir tarjimon Vafo Fayzulloh she'rlarida badiiy san'atlardan tashxis san'atining keng qo'llanilishi vositasida ijodkor mahorati va o'ziga xos uslubi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, jonlantirish, tashxis, intoq, tashbeh, poetik obraz, manzara-lavha.

Hozirgi o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Vafo Fayzulloh she'rlari o'ziga xos ohang, uslub va tasvir vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarini o'qish asnosida deyarli har bir misrada poetik tasvir vositalariga duch kelamiz. Shu bilan birga she'rlardagi ritmning o'zgachaligi, she'riy san'atlarning mahorat bilan qo'llanilib, jozibadorlik kashf etishi har qanday o'quvchi qalbini zabt etib, o'z hissiyotlariga, betakror kechinmalariga oshno etadi. Shoirning ayrim she'rlarida Sergey Yesenin she'riyatiga xos chizgilar, ohang seziladiki, buni ijodkormning Yesenin she'rlarini tarjima qilganligi natijasi deya izohlash mumkin.

Tashxis – arabcha shaxs so'zidan olingan bo'lib, “shaxslantirish” degan ma'noni anglatadi. Jonli va jonsiz narsalarga, inson tuyg'u va a'zolariga, samoviy jismlarga xuddi insonlar bajaradigan harakat hamda faoliyatlarni yuqtirib ularni shaxslantirib tasvirlash usuli. Masalan: *osmonning yig'lashi, gullarning kulishi, umidning tug'ilishi, daraxtlar va qushlarning suhbat, kuylashi* kabilarni ko'rsatish mumkin.

Vafo Fayzullohning tevarak-atrofni, nabotot va hayvonot olamini teran nigoh bilan kuzatishi uning she'rlarida tashxis san'atining betakror va hayratlanarli namunalarining paydo bo'lishiga turtki bo'lganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, quyidagi misralarda shoirning daraxt va qushlarni do'stga, jo'raga qiyoslangan poetik obrazi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ko'zingni och, tegrangga qara.

Har bir daraxt, har bir qush jo'ralar.

Lirik qahramon nazdida dardkash ham, do'st ham daraxtlar va qushlar. Demak, ularga bemalol ishonish va dardlarni aytish mumkin. Nima uchun



tepangga qara, deyilyapti? Chunki daraxt tepasida qushlar chug'urlashib, unga taskin berayotganday manzara tasvirlangan.

Mumtoz adabiyotimiz an'analaridan ozuqa olgan bugungi kun she'riyati namunalarida badiiy san'atlar qaysidir ma'noda mukammallik kasb etgan, desak xato bo'lmaydi. Jumladan Vafo Fayzullohning "Oq laylak" to'plamidan keltirilgan she'rlar va she'riy parchalari fikrimizni yaqqol dalillaydi.

Yuragimning sahrosida chopdim yana,
Shahid ketgan lolalarni topdim yana,
O'z qalbimni o'z dardim-la yopdim yana,
Bahor ketdi, bahor ketdi...

Shoir bahorning ketishini lirik qahramon uchun fojia darajasiga olib chiqqan. Lolalarning qovjirab qurib qolishi, yurakning sahroga qiyoslanishi lirik qahramon dardlarining yopilishi – mana shu uchta birikma orqali istiora, tashbeh va tashxis san'ati imkohiyatlarini mahorat bilan ko'rsata olgan. She'rning dastlabki uch misrasi $4 + 4 + 4 = 12$ shaklida turoqlanib, to'rtinchi misra $4 + 4 = 8$ shaklida yozilgan. Shoir nazarida bahorni uch marta ketdi deb aytish shart emas. Lekin ko'p nuqta orqali yana bir marta to'rt bo'g'inli *bahor ketdining* borligiga ishora qilingan. Bir misrada hech qanday o'zgarishsiz so'z yoki birikma yoki gap takrorlanishi mumtoz adabiyotimizda **mukarrar** san'atini yuzaga keltiradi. Bandda lolalarning insonga qiyoslanib, shahid ketgan holatda topilishi, bizningcha, qalb sahrosidagi muhabbat zavoli shu taxlit betakror shaklda tasvirlangan. Quyidagi she'riy parchada o'z uyida ketib darbadarlikda kun kechirayotgan kishi holatiga tushgan lirik qahramon qizg'aldoq bilan sirdosh do'st tutinishi aks etgan.

Darbadarga qish juda azob,
Omadsizga tobutdir xazon.
Nechun bergum nokasga hisob,
Nechun olgum pastlardan ehson?
Meni qiynar ming bitta so'roq,
Qizg'aldog'im, jonim qizg'aldoq.

Qizg'aldoqni dardkash do'st timsolida ko'rish Muhammad Yusuf ijodida ham uchraydi. Nima uchun qizg'aldoq? Qizg'aldoqning qon rangiga o'xshash ekanligi e'tibor markazidami yoki umri juda qisqaligimi? Vafo Fayzulloh ham xuddi Muhammad Yusuf kabi qizg'aldoqqa murojaat qilib, uni jonlantirib tashxis hamda nido san'atlarining betakror namunasini yaratgan. Muhammad Yusuf $4+4+4=12$ shaklidagi to'rt band, o'n ikki bo'g'inli barmoq vaznida "Qizg'aldoq" she'rini yozgan bo'lsa, Vafo Fayzulloh she'ri $4+5=9$ vaznidagi olti misralik olti



bandli barmoqda shu she'rini yaratgan. U har bandning oxirida qizg'aldoqqa murojaat etsa, Muhammad Yusuf faqat she'r boshida bir martagina qizg'aldoq so'zini qo'llaydi. Har ikki shoir o'ziga sirdosh, dardkash sifatida nima uchun aynan qizg'aldoqni tanlashgan. Ularning nazdida bu gul bag'ri qon gul. U o'z alamlarini go'yo rangi orqali ko'rsatayotganga o'xshaydi va ular ham o'z holatlariga hamohang deb boshqa gullardan ajralib gulzorda emas, balki qiradirlarni o'ziga maskan qilgan qizg'aldoqlar yoniga borib, ularga qalb tug'yonlarini bayon etishadi hamda go'yo ularning ham dardlariga hamdardlik bildirishayotganga o'xshaydi. Haqiqatan ham, siqilgan kishi tinchroq, odamlarda holi joyda yolg'iz qolib, kim bilandir dardlashgisi keladi. Bu tabiiy holni shoirlar gullar vositasida amalga oshirishib, qizg'aldoq obrazini sirdosh do'st kabi o'z dardlarini tinglovchisi sifatida jonlantirishgan. Olamga o'z go'zalligini namoyon etgach, ya'ni to'liq ochilib bo'lgach, qizg'aldoqlar tezda qovjirab so'lib qoladi. Bu yerda hayot zarbalariga duch kelgan, turli nohaqliklarga uchragan, aldovlar qurshovida qolgan lirik qahramon o'z taqdiri bilan ana shu qismatga achinish hissi uyg'unligini ko'rsatish vositasida o'z kechinmalarini shu tarzda bayon etadi. Bugungi kun lirikasida **gul** istiorasi orqali *do'st, farzand, singil, mulozim, dardkash* kabi bir qator poetik timsollar yaratilmoqdaki, bu she'riyatimiz yuksalayotganidan ko'rsatadi.

Xiyonatni etdilar qatl,
Yig'lab kuyga osil **Olapar**.
Tverskoyda **baytallar** xomush,
She'r yeydilar, ichadilar qon.

Tverskoy Moskva ko'chalaridan biri. U yerda shoir she'r ohangiga mos kuyning nolasidan shunday ta'sirlanadiki, natijada kuchukka so'zlab yuboradi, kuy nolasidan baytallarning xomush tortganini ko'ra oladi. Nola shu darajada mungliki, yig'lamaslikning iloji yo'q. Shaxslantirilgan so'z – baytallarga e'tibor qaratsak, shoiralarga ishora qilinayotganini sezish mumkin. Baytal (otning urg'ochisi)ga o'xshatilgan shoiralar o'z yurak qonlarini ichib, she'rlar bilan oziqlanib, ijod bilan mashg'ul bo'lishayotgan holat ko'z oldimizda gavdalanadi. Tashxis vositasida yuzaga keltirilgan bunday betakror lavhalar ijodkor poetik olamining kengligidan dalolat beradi.

Shivirlaydi terakning labi,
Qarg'alar beshikni tebratar.

Terakning yuqori qismidagi yaproqlarining shamolda tebranishidan chiqayotgan ovoz go'yo terak lablari shivirloyotganday, qarg'alar inini tebratib polaponlariga alla aytayotganday manzara-lavha xuddi kino kadriday ko'z



oldimizda gavdalanadi. Ammo bizningcha, qarg'alar yomonlar, yovuz niyatli kishilar obrazi. Ular beshik—dunyoni tebratishga urinayotganliklaridan ezgulik, insonparvarlik, hayotsevarlik g'oyalari terak obrazi orqali, ya'ni haqparast, duogo'y shaxslarning Allohga qilayotgan duolari, iltijolari terakning shiviri tasviriga qiyoslangan. Dunyoni buzayotgan kishilar tinch hayotiga raxna solayotganlar qarg'alarga mahorat bilan qiyoslangan.

Yo'lga chiqqan kelin – **turnalar**,

Qaytmas endi, bir sevgi porloq.

Kuz kelishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketayotgan turnalar - qaytmas kunlarga o'xshatilib shaxslantirilgan. Inson qalbidagi otashin sevgi ham o'tgan kunlar kabi qaytmasligi lirik qahramonni iztirobga soladi.

Qushcham, mendan oldin bahorni sezding,

Mungli kunlarimga yo'llading navo.

Bahorni sog'ingan lirik qahramonning mungli kunlariga navo yo'llayotgan qushcha sirdosh, darddosh do'stga qiyoslab shaxslantirilgan. Qushchaning ijodkordan oldin bahor kelishini sezishi xushovozidan, ya'ni unga chiroyli xonish qilib sayrab, ko'tarinki kayfiyat ulashishi o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Qushchaning navosi zabun ko'ngil hamda mungli kunlarni kechirayotgan shoir ruhiyatiga yangilik, yengillik va quvonch bag'ishlaydi.

Zag'izg'onlar holimdan kular,

Chumchuqlar tanirmi sho'x boqib.

Boyo'g'li, xotira o'rtanar,

Marhumlarning uyiga sohib.

Yuqoridagi misrlarda nomlari keltirilgan qushlar ham insonlarga qiyoslanib, shaxslantilgan. G'amga botgan lirik qahramon ustidan, albatta, do'stlari kulmaydi. Uni ko'rolmaydigan, xusumati borlar zag'izg'onga o'xshatilgan.

Daryolarning shoshqini boshqa,

Oq bulutlar uyg'otdi meni.

Oq bulutlar o'z musaffoligi, go'zalligi, parquligi bilan ijodkor dilidagi qotib qolgan inja tuyg'ularni, beg'ubor orzularni uyg'otgan. Qaysi shoir sohil bo'yida samodagi ilohiy go'zallikdan ilhom olmasligi mumkin. G'am – tashvishlardan, hayot chigalliklaridan karaxt bo'lib, uxlab qolayotgan lirik qahramonni oq bulutlar uyg'otadi. Oq bulutlar kelajakka ishonch, hayotga muhabbat, mudrab yotgan tuyg'ularini junbisha keltirgan umid obrazi sifatida tasvirlanadi. Umid esa insonga yashash uchun kuch-quvvat, ishonch, shijoat bag'ishlaydi.

Yashil tushlar bilan limmo-lim **buloq**



Yo'lidan qaytmaslarni kutyapti.

Ezguliklarga chulg'angan, kelajakka ishonch tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan, oldiga qo'ygan ezgu niyatlariga, maqsadiga yetish ishtiyoqida yonayotgan qalb hamda chaqnayotgan ko'z buloqqa o'xshatilgan. Bu ko'z egasi o'sha orzular ro'yobini kutyapti. Albatta, buloqning kutishi ham nodir topilma. Buloq obrazi orqali shoir ko'z oldimizda urushdan qaytmagan o'g'lini kutayotgan motamsaro ona qiyofasini gavdalantiradi.

Oq kuylaklar kiygan tog'lar bor hamon,

Yelkasida cho'g'day hilpirar lola.

Turnalar olislardan qaytishdi omon,

Xayrlashuv chog'i ko'z ochgan nola.

Tog'lar yelkasida bir dunyo tashvishlar bo'lgan oq yaktak kiygan nuroniy kishilarga qiyoslangan. Mantiqan asoslangan, o'quvchi uchun tushunarli ifoda. Turnalarning qaytishi va nolaning tug'ilishi tasvirida ham tashxisning o'xshatish asosida yuzaga keltirilganini ko'ramiz.

Go'zal uxlar tunlar **Ryazan**,

Tushlarida juvonmarg farzand.

Bevaqt o'lib ketgan o'g'lini tushida ko'rayotgan chiroyli uxlayotgan ona siymosiga qiyosan tasvirlangan bu misralar orqali ijodkor Ryazan shahrining tungi manzarasi juda chiroyli va sokin ekanligi bilan o'quvchini tanishtiradi. Shaharning *tush ko'rishi*, *go'zal uxlashi* qiyoslari yordamida shaxlantirilgani esa noyob topilma. Vatan uchun bo'lgan janglarda shahid ketgan farzandlarini bag'riga olib uxlayotgan ona siymosi aks etgan manzara-lavha ijodkorning mahoratini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Vafo Fayzulloh she'rlarining aksariyatida badiiy san'atlardan tashxisning betakror namunalarini ko'rish mumkin. Bu shoir ijodida badiiy tasvir vositalaridan o'rinli va unumli qo'llana olishini ko'rsatadi. Ijodkor badiiy olami imkoniyatlari kengligi hamda salohiyati, tafakkur va bilim doirasi yuksakligidan darak beradi. Bunday she'rlar o'quchi qalbiga tez kirib borib, ularni she'riyatga, adabiyotshunoslikka, badiiyatga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vafo Fayzulloh. Oq laylak. – Toshkent. Muharrir, 2020.
2. Yoqubjon Ishoqov. So'z san'ati so'zligi. – T.: Fan, 1916.
3. Anvar Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Abdug'ofur Rasulov. Tanqid. Talqin. Baholash. – T.: Fan, 2006.
5. Hamidullo Boltaboyev. Badiiy san'atlar talqini. Sharq mumtoz poetikasi. – T.: O'zbekiston davlat ilmiy nashriyoti, 2006.